



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

## ***Bahor keldi seni so'roqlab...***


*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,  
Ul ham yoshi to'kdi-yu, chekindi nani.*

*Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,  
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.  
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,  
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.*

**Zulfiya,**  
*O'zbekiston xalq shoirasi*





Xolida G'ULOMOVA,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

## BO'LG'USI ONA TILI O'QITUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METODLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bo'lg'usi ona tili o'qituvchisini maktab ta'limiga tayyorlashda o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim metodlari, izlanish, mustaqil ish, qayta xotiralandi metodlari, "Klaster" texnologiyasi.

**Аннотация:** в трех статьях речь идет о совершенствовании соответствующих знаний, умений и навыков будущего учителя родного языка при подготовке методов обучения в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** проблемные методы обучения, исследование, самостоятельная работа, методы запоминания, технология "Кластер".

**Annotation:** this article talks about the formation of relevant knowledge, skills and qualifications for applying teaching methods to the educational process in preparing the future mother tongue teacher for school education.

**Key words:** problem-based learning methods, research, independent work, memorization methods, "Cluster" technology.

Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilanganligi bevosita oliy ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodikasiga ham taalluqlidir. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining sifati va samaradorligi ta'lim beruvchining metodik tayyorgarligiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda subyekt - subyekt hamkorligiga asoslangan ta'lim jarayonini nazorat qilish va boshqarish strategiyalarining takomillashtirilishiga bog'liq. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasining "Kadrlar bilan bog'liq muammolar" ida "Oliy ta'limdagi nomukammalliklar tufayli bitiruvchilarning nazariy tayyorgarlik hamda amaliy kompetensiyalari bog'lanishlarida bo'shliqlar yuzaga kelgan"<sup>2</sup>ligining qayd etilishi bejiz emas. Ma'lumki, o'qitish metodlari barcha fanlar uchun umumiy, universal<sup>3</sup> metodlarga va muayyan fanni o'qitishga tatbiq etiladigan metodlarga ajratiladi.

Ta'lim metodlari voqelikni amaliy va nazariy o'zlashtirish, o'rganish, bilishi uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmui, pedagogik bilimlarni yaratish va asoslash usuli<sup>4</sup> tarzida talqin qilinadi.

Talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, ta'limda faolligi va mustaqilligini tarbiyalash o'qitishning asosiy talabi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bo'lg'usi o'qituvchini maktab ta'limiga tayyorlash,

ya'ni o'qitish metodlari bilan tanishtirish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

F. I. Buslayevning ilmiy metodni ta'lim metodidan farqlash lozimligi, ilm-fanni talqin etayotgan olim o'quvchi yoki tinglovchining shaxsiyatiga e'tibor bermasligi, o'z ilmini o'zini tushunadiganlargagina taklif qilishi haqidagi fikrlari ta'lim metodlarini ajratish va tanlashga alohida e'tiborli bo'lishga undaydi. Jumladan, oliy ta'limda ona tili o'qitish metodikasi talabalarni maktab amaliyotiga tayyorlashini nazarda tutsak, o'qitish metodlari talabaga yo'naltirilishi, shuningdek, uni maktabda ona tilini o'qitish metod, usul va vositalari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Oliy ta'limda izlanish metodi, muammoli ta'lim metodlari, mustaqil ish metodlari talabalarga maktab ona tili ta'limida qo'llaniladigan metod, usul va vositalar bilan tanishish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim metodlari dars jarayonining o'quv-tarbiyaviy vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro birgalikdagi harakatidir. Ta'lim metodi o'quvchi qobiliyatlarini ishga solish, rivojlantirish va tarbiyalashga xizmat qiladi. Metod bilimlarni egallash asosi hisoblanadi. Barcha o'quv fanlarini o'qitishda qo'llanadigan tushuntirish-illyustrativ metod, reproduktiv metodlar, muammoli o'qitish metodlari natijaviylikni ta'minlaydi.

Ta'lim metodlari o'quvchilarning mavzu yuzasidan tafakkur yuritishiga, aqliy faoliyatga undashi bilimlarni ongli o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Masalan, reproduktiv metod, ijodiy ish metodi, tadqiqotchilik metodlari matn

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 – 2026 - йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ 60-сон Фармони. – Т., 2022.

2 Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi. – Т., 2020. 11-b.

3 Olimning universal metodlar yo'q degan fikrini bir metodni fanning barcha hodisalarini o'rgatishga tatbiq etib bo'lmaydi degan ma'noda tushunish lozim.

4 Pedagogik ensiklopediya. – Т.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 199-b.

tahlili jarayonida tilni amaliy o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

O'qituvchi ona tilini o'qitish jarayonida o'quv predmetining mazmunidan, maqsadidan, o'quvchilarning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda metod, usul va o'qitish vositalarini tanlaydi. Demak, talaba shu jarayonda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan metodlarni tanlay olishi va qo'llash ko'nikmalarini egallashi lozim.

Interfaol **"Klaster"** texnologiyasi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu texnologiya yordamida o'rganilayotgan hodisaning ichki qismlari va ular orasidagi bo'linishlar hamda bog'lanishlar yoritib beriladi. Masalan, "So'z turkumlari"ni o'xshash va farqli xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratishda foydalanish o'quvchilarning ongli fikrlashlarini ta'minlaydi. Masalan, o'quvchilar maxsus topshiriqlar asosida matn tahliliga jalb qilinadi.

**Matn:** Oy Yerga eng yaqin osmon jismidir. U Yerdan to'rt marta kichik, og'irligi esa 81 marta kamdir.

Oy Yerning atrofida bir kecha-kunduz davomida to'liq aylanib chiqadi. Yerdan qaranganda Oy turli vaqtda turlicha ko'rinadi.

Oyda ham Yerdagiga o'xshash tog'lar, tekisliklar bor. Lekin havo qatlami va suv yo'q, shu sababli unga ko'plab osmon jismlari kelib uriladi. Natijada Oy sirtida qiya chuqurliklar hosil bo'lgan. Ulardan biri Ulug'bek nomi bilan ataladi. Oy sirtida qora dog'lar bor. Ular "dengiz" deb ataladi. Lekin bu "dengiz"larda suvdan asar ham yo'q. (M.Mirakmalov)

Har bir o'quvchilar guruhi quyidagi topshiriqlarni mustaqil bajaradilar:

**1-topshiriq.** 1. Matnni o'qing. So'roqlar asosida so'zlarni guruhlariga ajrating. Yakka o'zi biror so'roqqa javob bo'lmagan so'zlarni aniqlang.

| Kim?     | Nima?                                        | Qancha? | Qanday? | Kimlar? | Qaysi? | Nima qiladi?   |
|----------|----------------------------------------------|---------|---------|---------|--------|----------------|
| Ulug'bek | Oy, Yer, osmon, jism, kecha-kunduz, tog' ... | To'rt   | qora    | ular    | shu    | ko'rinadi, ... |

Yakka o'zi so'roqqa javob bo'lmagan so'zlar: esa, bor, yo'q, lekin, va, ham, ...va hokazo.

**2- topshiriq.** O'ylang. So'roqqa javob bo'lgan so'zlarni qanday so'z turkumi deb nomlaysiz? So'roqqa javob bo'lmagan so'zlarni qanday nomlaysiz?

O'quvchilar oldingi bilimlariga asoslanib, ot, sifat, son, fe'lni nomlaydi.

**3- topshiriq.** Lekin, bilan so'zlarini tushirib gaplarni o'qing. Bu so'zlar nimaga xizmat qilayotganini ayting. ham so'zi nimaga xizmat qilyapti?

O'quvchilar javoblari asosida "Klaster"ni shakllantirib boradilar. O'quvchilarga klaster asosida so'zlarni turkumlashda qaysi tamoyillarga asoslanishlari

tanishtiriladi. "Klaster" texnologiyasining bilimlarni o'zlashtirishlariga ta'siri aniqlanadi.

"Klaster" yordamida talabalarga tildagi so'zlarning turkumlanishini, o'qitish metodlari tasnifi xususida tushunchalar beriladi.

Ona tili ta'limi jarayonida tushuntirish metodiga ham ehtiyoj seziladi. Tushuntirish-namoyish etish metodida o'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. O'qituvchi ona tilining qonun-qoidalarini misollar bilan asoslab tushuntiradi va uni mustahkamlaydi. Tushuntirish-namoyish qilish metodidan uch holatda foydalaniladi: 1. Murakkab mavzular, ya'ni o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar tushuntirish, bayon qilish orqali yetkaziladi. Ko'pincha til hodisalarining mohiyatini tushuntirish, masalan, jarangli va jarangsiz undoshlarning xususiyati haqida ma'lumot berishda tatbiq etiladi. 2. O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishga tatbiq etiladi. 3. Qo'shimcha ma'lumot berish; o'quvchilarning tushunmagan o'rni yuzasidan bergan savollariga javob qaytarishda qo'llaniladi.

Tushuntirish metodida nutq madaniyatiga amal qilish, o'quv materialini qat'iy bir reja asosida bayon qilish, ishonirish va asoslash tamoyillariga amal qilinadi. Tushuntirish ta'lim oluvchining yoshiga, psixologik xususiyati (diqqatini jamlash vaqtiga, xotirasining kuchli yoki sustligiga), individual xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, gapning ajratilgan bo'laklari, kiritmalar, matn parchalarining bog'lanishlari ko'rsatmali-tushuntirish orqali o'rgatiladi.

Muammoli bayon qilish metodida o'qituvchi o'quvchilar oldiga ta'limiy muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyatga yo'llash orqali muammoning yechimini topishga undaydi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi. Muammoli metod, bir tomondan, o'qituvchidan o'quvchilar oldiga qo'yiladigan muammoni

aniqlab olish, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish mahoratini, ikkinchi tomondan, muammoni hal etishga o'quvchilarni yo'llay bilishini talab etadi. Mazkur metod vazifadosh modal so'zlarni ot, sifat, tartib sonlarning o'z ma'nolari bilan modal ma'no ifodalash holatlarini aniqlashga tatbiq etish samarali natija beradi.

Qayta xotiralanish metodi til hodisalarini mustahkam o'zlashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi egallagan bilimlarini til birliklari tahliliga tatbiq etishi jarayonida qayta xotirlaydi, Shuningdek, topshiriqni namunaga qarab bajaradi, ya'ni muayyan andoza asosida harakat qiladi.

O'qituvchining tushuntirishi va amaliy tahlili orqali kuzatgan namunalarini boshqa shu tipdagi til hodisasining tahliliga tatbiq etadi. Loyahasini yaratishda eslaydi, xotirasida qayta tiklaydi. Masalan, ko'makchilar, ularning grammatik ma'nolari haqidagi nazariy bilimlar bilan tanishgan o'quvchi gaplar tahlilida shu ma'lumotlarni xotirlab, boshqa ko'makchilarning ma'nosini aniqlaydi.

Yoki o'qituvchi matn tarkibidan leksik va grammatik sinonimlarni topib izohlab beradi, guruhlash topshirig'ida o'quvchilar shu namunani xotirada olib qoladi, keyingi gaplar tahliliga tatbiq etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shaxsga yo'naltirilgan metodlar bo'lajak o'qituvchini ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishga tayyorlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 – 2026 - йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. – Т., 2022.

2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi. – Т., 2020. 11-b.

3. Pedagogik ensiklopediya. –Т.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 199-b.

**Feruza SHARIPOVA,**

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti dotsenti, p.f.n*

*E-mail: sharipova.feruza19@gmail.com*

*ToshPTI dotsenti, s.f.n., D.D.Buranova taqrizi asosida*



## HOW DO READING COMPREHENSION AFFECT ON LEARNING OF ENGLISH LANGUAGE FOR SPECIFIC PURPOSES

**Annotation:** this study investigates the impact of reading skills through the study of academic scientific literature for future physicians in English classes in medical high school. The study focused on the development of reading skills in scientific literature through medical texts from journal articles and reviews. The materials were articles and reviews from the top world-famous medical journals for 2024 according to research.com such as The Lancet, Nature Medicine, BMJ, etc. The aim was to increase both amateur and professional interest in learning English as an academic language, to enrich vocabulary about medical terminology and to streamline the reading process with audio support. The results suggest that the effect of developing reading skills through the study of scientific literature is an excellent way to raise the low level of reading comprehension of professional material among future medical students.

**Key words:** *English for special purposes, medical Literature, reading skills.*


**Аннотация:** в этом исследовании изучается влияние навыков чтения посредством изучения академической научной литературы для будущих врачей на занятиях английского языка в медвузе. Исследование было сфокусировано на развитии навыков чтения научной литературы с помощью медицинских текстов из статей и обзоров журналов. Материалы составили статьи и обзоры из топа всемирно известных медицинских журналов за 2024 г. согласно сайту research.com таких как The Lancet, Nature Medicine, BMJ и т.д. Целью было повысить как любительский, так и профессиональный интерес к изучению английского языка в качестве академического, обогатить словарный запас о медицинской терминологии и упорядочить процесс чтения с помощью звукового сопровождения. Результаты свидетельствуют о том, что эффект развития навыков чтения на примере изучения научной литературы является отличным способом поднять низкий уровень понимания прочитанного профессионального материала среди будущих медиков.

**Ключевые слова:** *английский для специальных целей, медицинская литература, навыки чтения.*

**Annotatsiya:** ushbu tadqiqotda tibbiyot oliy o'quv yurtida ingliz tili darslarida bo'lajak shifokorlar uchun akademik ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali o'qish ko'nikmalarining ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot maqolalar va jurnallar sharhlaridan olingan tibbiy matnlar yordamida ilmiy adabiyotlarni o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. "The Lancet", "Nature Medicine", "BMJ" kabi jahon miqyosidagi taniqli tibbiyot jurnallaridan research.com veb-saytlarga ko'ra, 2024-yil uchun maqolalar va sharhlar tayyorlandi. Maqsad ingliz tilini akademik til sifatida o'rganishga havaskorlik va professional qiziqishni oshirish, tibbiy terminologiya bo'yicha lug'at zaxirasini boyitish va ovozi qo'shiq yordamida o'qish jarayonini tartibga solishdan iborat edi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ilmiy adabiyotlarni o'rganish misolida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarasi bo'lajak shifokorlar o'rtasida o'qilgan professional materiallarni tushunishning past darajasini oshirishning ajoyib usuli hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** *maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, tibbiy adabiyotlar, o'qish ko'nikmalari*





# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'liq Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulxumor Mirzayevara  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayevara  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Alijon Safarov  
Husniddin Norqulov  
Odiljon Boynazarov  
Madina Nuriddinova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayevara  
Guli Shukurova  
Yuldosh Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan  
Gulchexra Keldiyorova  
Gulsanam Xolikulova  
Komiljon Qarshiyev  
Svetlana Umirova  
Xolmo'min Fayzullayev  
Nilufar Namazova  
Dilbar Niyazova  
Sayyora Halimova  
Shaxnoza Yunusova  
Nigoraxon Ro'zibayevara  
Tadjixon Sabitova  
Oqila To'raqulova

## Axborot hamkorimiz:

**TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI**  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIG'INING  
ILMIY-METODIK JURNALI

## Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

## Muharrirlar:

Bibimariyam RAHMONOVA  
Shabnam G'ANIYEVA  
Bonu DO'SMATOVA

## Sahifalovchi:

Rustambek YUSUPOV

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (93) 759-43-66, (77) 003-34-33,  
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## M U N D A R I J A

### DOLZARB MAVZU

**Safo Matchonov.** Matn tahlili vositasida  
o'quvchilarning mutolaa madaniyatini  
shakllantirish usullari .....2

**Nasiba Sabirova.**  
"Tarbiya" fanini o'qitishda badiiy  
adabiyotlardan foydalanishning  
o'ziga xos xususiyatlari .....5

**Shohida Shahabitdinova.**  
Zamonaviy neyropsixologiyavistika  
tendensiyalari .....8

**Nafisa Abdullayeva.**  
**Muxtabar Maraimova.**  
Maktabgacha ta'lim tashkiloti  
rahbarlarida o'zini-o'zi rivojlantirishining  
kasbiy faoliyatdagi ahamiyati ..... 11

**Shaxnoza Batoryaliyeva.**  
Metodические аспекты  
функциональных задач в  
учебно-воспитательной работе и  
деятельности тьюторов в высших  
учебных заведениях Узбекистана ...14

**Sevara Usmonova.**

**Feruzaxon Muxammatjonova.**  
O'zbek tarixiy asarlarida antroponim va  
toponimlarning o'zaro bog'liqligi .....23

**Saida Maksumova.**  
Gapda grammatik aloqaga  
kirishmaydigan bo'laklarning uslubiy  
xususiyatlari .....25

**Nargiza Qodirova. Ismoiljon Xojaliyev.**  
Turli tizimli tillarda komponent tahlil ....28

**Barno Karabayeva.**  
Семантические и прагматические  
аспекты перцептивных категорий в  
английском и узбекском языках .....30

**Матлуба Ахмедова.** Вопросы об  
основных тенденциях развития  
переводоведения в узбекистане .....33

**Sarvinov Ermatova.**  
The Power of Words: A Linguistic Study  
of Orders in Institutional Texts .....36

### ADABIYOTSHUNOSLIK

**Olim Kayumov.** G'iybat va  
"mish-mish" folklor janri sifatida .....38

**Madinabonu Axmedova.** O'zbek  
mifologiyasida ajdarho obrazi .....41

**Shaxlo Xalilova.**  
**Nilufar Ergasheva.**  
"Jeyn Eyre" va "Anna Karenina"  
asarlarida ayollarning o'rni .....44

### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

**Sanobar Kuldashaeva.**  
Sintaksisni o'qitishda raqamli  
texnologiyalarning o'rni .....46

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli  
qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik  
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy  
ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>*